

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON DAVLATLARI O‘RTASIDAGI MADANIY-IQTISODIY MUNOSABATLAR

Baxtiyor Mirkomilov

Jizzax pedagogika universiteti Professori

Nurjahon Tangirova

Jizzax pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mualliflar tomonidan MDH davlatlarining hamkorlik munosabatlari shu o‘rinda O‘zbekiston hamda Qozoqiston mamlakatlarida bo‘ladigan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda ilmiy sohalarda qo‘lga kiritilayotgan natijalar hususida ma’lumotlar bayon etilgan. Mualliflar ishonadiki to‘plangan bilim hamda dalillar soha mutahassislari va muttasadilari uchun dasturul amal vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlar, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, O‘zbekiston va Qozog‘istonning ilmiy yangiliklari, erishilgan yutuqlar, kutilayotgan natijalar.

Аннотация

В данной статье изложена информация о результатах, достигнутых в таких областях, как экономика, социальная сфера, политика и наука в рамках сотрудничества стран СНГ, с особым акцентом на Узбекистан и Казахстан. Авторы считают, что накопленные знания и доказательства будут служить ориентиром для специалистов и экспертов в данной области.

Ключевые слова: экономические, социальные, политические процессы, укрепление межэтнического согласия, научные достижения Узбекистана и Казахстана, результаты, ожидаемые достижения

Annotation

This article presents information about the results achieved in various fields such as economic, social, political, and scientific cooperation between the CIS countries, specifically focusing on Uzbekistan and Kazakhstan. The authors believe that the accumulated knowledge and evidence will serve as a guide for experts and specialists in the field.

Keywords: economic, social, political processes, strengthening interethnic harmony, scientific innovations of Uzbekistan and Kazakhstan, achievements, expected results.

KIRISH

Bugun mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi millatlararo totuvlik hamda bag‘rikenglikni yanada tarannum etish maqsadida qo‘shni davlatlar bilan ham iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy sohalarda o‘zaro hamkorlik ishlari olib borilmoqda.

Bu jarayonlar albatta har bir sohada yetuklikka erishishimiz uchun ham dasturulamal vazifasini bajarmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar borki, ular har jabhada birdam bo'lib yurt ravnaqi va istiqboli uchun hamkorliklar olib bormoqdalar. Ushbu tashkilotga 1991-yil 21-dekabrda Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston davlatlari qo'shildi. Ushbu tashkilotning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'ini saqlash va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tuta boshladi. MDH haqiqiy a'zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a'zolarining bo'lishi mumkin. Hozir MDH ga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln. kishini tashkil etmoqda. Bu aholining 120,5 mln. iqtisodiyotda mashg'ul bo'lishidan dalolatdir[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy-iqtisodiy munosabatlar tarixan chuqur ildizlarga ega. Ushbu ikki davlatning geografik yaqinligi, tarixiy, madaniy va tilga oid o'xshashliklari hamkorlikning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Madaniy sohada, O'zbekiston va Qozog'iston xalqlari o'rtasida o'zaro hurmat va do'stlikni rivojlantirishga qaratilgan turli madaniy tadbirlar, ko'rgazmalar, musiqa va san'at festivallari o'tkazilmokda. O'zbek va qozog'istonlik san'atkorlar o'rtasida faol hamkorlik mavjud, bu esa ikki mamlakat xalqlari o'rtasida madaniy almashinuvni kengaytiradi. Iqtisodiy sohada, ikki davlat o'rtasidagi savdo va investitsiya aloqalari tobora kuchayib bormoqda. O'zbekiston va Qozog'iston energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat, va infratuzilma sohalarida birgalikda loyihalar amalga oshiradilar. Bundan tashqari, ikki mamlakat o'rtasidagi transport va logistika sohasida hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi yo'nalishlar ochilmoqda. Bu hamkorliklar ikki davlat iqtisodiyotini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta'lim sohasida ham o'zaro aloqalar kengaymoqda. Talabalar almashinuvi, ilmiy konferensiyalar va o'quv dasturlari orqali ikki mamlakatning ilmiy, texnologik va ma'rifiy salohiyati oshib bormoqda. Umuman olganda, O'zbekiston va Qozog'istonning madaniy-iqtisodiy munosabatlari nafaqat ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo'shishga yordam bermoqda.

Turizm sohasining rivojlanishi va diniy bayramlarning integratsiyasi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning ajralmas qismiga aylandi. Masalan, chet ellik sayyohlarga ikkala mamlakatni ziyorat qilish imkonini beradigan ko'p martalik vizalar berish bo'yicha kelishuvni tayyorlash jarayoni boshlandi. O'zbekiston va Qozog'iston

musulmonlar diniy boshqaruvlari o'rtasida diniy bayramlarni bir vaqtda o'tkazish to'g'risida memorandum imzolandi. Ushbu memorandum doirasida Ramazon hayiti va Qurbon hayitini bir xil kunda nishonlash, umumiy fatvalar va qarorlar qabul qilish, har ikkala mamlakatda ziyoratgohlarni tashrif buyurish qarori qabul qilindi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda o'zaro davlat tashriflari muhim rol o'ynadi. Xususan, 2018-yil 15 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarbayevning taklifiga binoan Astanaga tashrifi alohida ahamiyatga ega. Ushbu tashrif davomida Sh.M. Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahatlashuv uchrashuvida ishtirok etdi. Shu kuni O'zbekiston prezidenti "O'zbekiston yili" rasmiy tadbirida ishtirok etib, nutq so'zladi. O'z navbatida, Qozog'iston prezidenti Navro'z bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqini tabriklash maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Samarqanddagi forumlar majmuasida, xususan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik holati, shuningdek, kelajakdagi o'zaro aloqalar strategiyalari muhokama qilindi. Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida muhim yutuqlarga erishildi. Masalan, 2017-yilda o'zaro savdo hajmi 2 milliard AQSh dollariga yetdi, bu 2016-yilga nisbatan 31,2 foizga o'sdi. 2018-yilning ikki oyida yuklarni temiryo'l transporti orqali tashish bo'yicha ham o'tgan yilga nisbatan 44 foiz o'sish kuzatildi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy hamkorlikning dinamikasini inobatga olgan holda, 2018-yilda tovarlar almashinuvi hajmini 3 milliard dollarga, 2020 yilga kelib esa 5 milliard dollarga yetkazish bo'yicha kelishuvga erishildi. O'zbekistonning qo'shni respublikalar bilan aloqalari butun mintaqaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida bu aloqalar mustahkamlandi, ayniqsa, 2016-yildan boshlab ular o'z rivojlanishining eng yuqori nuqtasiga yetdi. Ushbu davrdan boshlab hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Shu davrda bir qator davlat tashriflari amalga oshirildi, ularning natijasida juda muhim kelishuvlarga erishildi va ularni amalga oshirish uchun tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Shu bilan birga, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik jahon siyosiy maydonida ham mustahkamlandi. Xususan, Qozog'iston O'zbekistonning har qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik siyosatini, shuningdek, barcha mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish takliflarini qo'llab-quvvatladi. O'zbekistonga, o'z navbatida, Qozog'istonning mintaqada tinchlik va xavfsizlikni saqlash borasidagi faoliyatlarini va konstruktiv takliflarini qo'llab-quvvatladi. Masalan, O'zbekiston 2017-2018-yillarda Qozog'istonning BMT Xavfsizlik Kengashida vaqtincha a'zoligi uchun ovoz berdi. Ushbu va boshqa omillar O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlikning yangi jihatlarini ochishga yordam berdi.

2016-yildan boshlab, Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Muammoli masalalarni ochiq muhokama qilish,

ularni hal etishga chin dildan intilish, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan yangi munosabatlarni o‘rnatish, hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishga imkon berdi. Bu yerda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 22-23-martda Qozog‘istonga qilgan tashrifini alohida ta’kidlash kerak. Ikki davlat rahbarlarining muzokaralari natijasida umumiy qiymati 1 milliard AQSh dollariga teng savdo shartnomalari va investitsiya kelishuvlari imzolandi. Ushbu tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga oid bir qator tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, 2017-yilda ikkita yirik biznes-forumlar tashkil etildi. Qozog‘istonda farmatsevtika savdo uyi tashkil etish bo‘yicha hujjatlar tasdiqlandi. “Uzavtosanoat” AK va “SariarkaAvtoProm” korxonasi uzoq muddatli hamkorlik doirasida mahsulotlarni tashqi bozorga eksport qilish bo‘yicha qo‘shma loyihani amalga oshirishni boshladi. Shuningdek, “Uzavtosanoat” AKning “SariarkaAvtoProm” korxonasiga kapital kiritish masalasi ko‘rib chiqildi. Ushbu tadbirlar ikki mamlakat o‘rtasidagi investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim bir yutuq bo‘ldi.[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston va Qozog‘iston eng yaqin qo‘shnilar hamda vaqt sinovidan o‘tgan strategik hamkorlardir. Keyingi yillarda ikki mamlakat o‘rtasida hamkorlikning yangi davri boshlandi, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi munosabatlar jadal rivojlanmoqda. Senat yalpi majlisida ma’qullangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomalarni ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun o‘zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qila boshladi. Shartnoma tashqi siyosat, mudofaa va xavfsizlik, migratsiya, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni qabul qilish, parlamentlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash kabi sohalarida yaqin hamkorlikni nazarda tutadi. Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi ikki xalqning ma’naviy-madaniy yaqinligini qo‘llab-quvvatlashga, madaniyat, ilm-fan, ta’lim va sport sohasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shartnoma ilovasida davlat rahbarlari boshchilik qiladigan O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi Oliy davlatlararo kengashi to‘g‘risidagi nizomdan na’munalar keltirilgan[2].

O‘tgan yillar mobaynida MDH mamlakatlari ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o‘zaro foydali hamkorlik ishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Bunday hamkorlik, hamdo‘stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog‘langanligina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar va mintaqaviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligiga ham asos bo‘ldi. Mintaqamiz xalqlarining yaqinlashuvi- tabiiy kechayotgan jarayonlardandir. Bu yaqinlik sobiq Ittifoq mavjud bo‘lganligidan qat’iy nazar hamma vaqtda ham bo‘lib

kelgan jarayondir. Bu haqiqiy integratsiya bo‘lib, sun‘iy ravishda joriy etiladigan integratsiyadan farq qiladi. Unga sovetlardan keyingi davlatlarning birortasi qarshi emas, ayni chog‘da ularning birortasi ham o‘z mustaqilligidan voz kechmoqchi emas. Biz uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas, balki bu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirishdan iboratdir. O‘zbekiston rahbariyati MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko‘rishni istadi. O‘zbekiston xalqaro majburiyatlarni bajarishda o‘ziga xos salohiyatni namoyish etdi. Qozog‘iston bilan hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga bag‘ishlangan 30 dan ortiq muhim ko‘p tomonlama hujjatlarning qabul qilinishi ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni yanada mustahkamladi. MDH ning ushbu davrdagi samarali faoliyatidan ikki mamlakatning qardoshlik rishtalarini chambarchast bog‘lanishida o‘z ko‘magini berganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu yil davomida qabul qilingan hujjatlarning ko‘p qismi dasturiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turdi. Ya‘ni, rejalashtirilgan tadbirlar aniq ko‘rsatilgan holda dasturlar, strategiyalar va yo‘l xaritalari shaklida qabul qilindi. Yana bir jihat -O‘zbekistonning savdo-sotiq doirasidagi alohida sheriklar bilan bu yilgi savdosi 20 foizdan oshdi. MDH doirasidagi O‘zbekiston faoliyatining samarali ekanligi ekspertlarning yuqori bahosi bilan ham tasdiqlanadi. MDH ning yoshlar bilan ishlash sohasidagi hamkorligi to‘g‘risidagi bitimiga qo‘shilish davlatimizning yoshlar huquqlarini ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Ushbu davrning eng muhim natijasi MDH ning 2030 yilgacha bo‘lgan davr uchun iqtisodiy rivojlanish strategiyasining qabul qilinishi bo‘ldi[3].

Hamdo‘stlik mamlakatlari fuqarolari farovonligini oshirishni, uning ishtirokchi davlatlarining jahon iqtisodiy aloqalarida mavqeini mustahkamlashni nazarda tutadi. Strategiyani amalga oshirish ikki bosqichga (2021-2025 va 2026-2030 yy.) bo‘lingan rejalar asosida amalga oshiriladi. MDH ga raislik nafaqat O‘zbekistonning imiji va obro‘sinı mustahkamlamadi balki, davlatimizning ishonchli xalqaro sherik sifatida yuqori salohiyatini namoyish etilishiga sabab bo‘ldi, bu esa o‘z navbatida Qozog‘iston hukumatining ham o‘zaro munosabatlariga ham bog‘liqligini yanada ko‘rsatadi. Ta‘lim sohasida O‘zbekistonning OTM Qozog‘iztonning top 1000 talikka kirgan universitetlaridan biri Muxtar Avezov nomidagi OTM ga stajirofka jarayonlarini amalga oshira boshladi. Ilm sohasida ham bu yangidan-yangi ishlar, start-up loyihalar hamda bunyodkorlik ishlarini qardosh sifatida yuritish uchun turtki bo‘ldi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston hamda Qozog‘iston mamlakatlarining turli sohalarda olib borayotgan birdamlik ishlari albatta o‘zining amaliy ahamiyatini beradi. Turli sohalarda yangidan yangi bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishimizda esa ko‘makchi bo‘lishimizga aslo shubha yo‘q. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy-iqtisodiy munosabatlar tarixan chuqur ildizlarga ega

bo'lib, mustaqillik yillarida bu aloqalar yanada mustahkamlanib, yangi sifat darajasiga ko'tarildi. Ikkala mamlakat o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan aloqalar, shuningdek, strategik hamkorlikning yangi shakllari rivojlanmoqda. Madaniy sohada, ikki davlat xalqlari o'rtasida diniy bayramlar va boshqa madaniy tadbirlar orqali yanada yaqinlashish kuzatilmoqda. O'zbekiston va Qozog'iston musulmonlar diniy boshqaruvlari o'rtasidagi memorandumlar, hamda turizmni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamladi. Iqtisodiy sohada esa, ikki davlat o'rtasidagi savdo va investitsiya almashinuvi sezilarli darajada o'sdi. 2017-yilda o'zaro savdo hajmi 2 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu 2016-yilga nisbatan 31,2 foizga o'sdi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi temiryo'l transporti orqali yuk tashish ham o'sish sur'atlarini ko'rsatdi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikning yanada rivojlanishi uchun kelgusi yillarda tovar almashinuvi hajmini 3 milliard dollarga, 2020-yilga kelib esa 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo'yildi.

Shuningdek, ikki davlatning jahon siyosatidagi o'zaro qo'llab-quvvatlashi, xalqaro maydonda bir-birining tashqi siyosatini qo'llab-quvvatlashga tayyorligi mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar nafaqat ikki mamlakatni, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, 2016-yildan boshlab o'zaro davlat tashriflari, savdo-sotiq, madaniy almashinuvlar va ilmiy hamkorlikning mustahkamlanishi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonlar, albatta, O'zbekiston va Qozog'istonning uzoq muddatli va muvaffaqiyatli hamkorlikni rivojlantirishdagi kuchli poydevori sifatida xizmat qiladi.

REFERENCES

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi.
- 2) <https://uza.uz/posts/542323>
- 3) Prezident Shavkat Mirziyoevning 2021 yilning 15-16 iyul kunlari Toshkentda o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi konferensiyada so'zlagan nutqi.
- 4) Samiev, A. Y. O'zbekiston — Qozog'iston: madaniy hamkorlikning yangi bosqichi / A. Y. Samiev. — / Yosh olim. — 2018. — № 51 (237). — B. 318-321.